

ZULFIYA LIRIKASIDA SADOQAT VA MUHABBAT MAVZUSI

Samadova Dilnoza

Berdaq nomidagi QQDU

O'zbek filologiyasi fakulteti 2-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14603149>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Zulfiyaxonim lirikasi haqida ma'lumot berilgan. Qolaversa, shoira she'rlarining mavzusi, g'oyasi va uning sadoqat, muhabbat to'g'risidagi she'rlari tahlil qilingan.

Annotation: This article provides information about Zulfiyakhanim's lyrics. In addition, the topic and idea of the poetess's poems and her poems about loyalty and love are analyzed.

Аннотация: В статье представлены сведения о лирике Зульфийяханим. Кроме того, анализируются тема и идея стихов поэтессы и ее стихотворений о верности и любви.

Kalit so'zlar: mavzu, g'oya, bahor, sadoqat, muhabbat, ayol.

Key words: subject, idea, spring, loyalty, love, woman.

Ключевые слова: предмет, идея, весна, верность, любовь, женщина.

Kirish. Zulfiya Isroilova-o'zbek xalqining sevimli, taniqli va iste'dodli shoirasi. O'zbek shoiri Hamid Olimjonning turmush o'rtog'i bo'lmish shoira o'zining ijodi bilan millionlab insonlar qalbidan joy oldi. Uning she'rlari faqatgina yurtimizda emas, balki dunyo miqyosida ham e'tirof etilgan. Shoiraning she'rlari jahonning ko'pgina tillari: rus, ingliz, nemis, hind, xitoy, arab, fors va boshqa tillarga tarjima qilingan. Hind mavzuidagi she'rlari uchun Javoharlal Neru nomidagi xalqaro sovriniga sazovor bo'lgan.

Iqtidorli shoira turli janrlarda asarlar yaratgan: dostonlar, balladalar, hikoyalar, ocherklar, she'rlar va bir qancha publistiktik maqolalar. Uning ko'pgina she'rlari tinchlik va do'stlik mavzulariga bag'ishlangan. Tinchlik va do'stlikni tarannum etuvchi asarlari hamda Osiyo va Afrika yozuvchilaridagi harakatidagi faol ishtiroki uchun xalqaro "Nilufar" mukofotiga sazovor bo'lgan.

Urush yillari u vatanparvarlik g'oyasi aks etgan she'rlar yozdi. Zulfiyaning "Mening Vatanim", "Qo'limda qurol-u ustimda shinel", "Bizni kut" kabi umidbaxsh she'rlari urush davri o'zbek she'riyatining jangovar ruhini ifodalovchi asarlar qatoridan o'rin olgan. Bundan tashqari, Zulfiya o'zining lirikasini boy ranglar va yangi timsollar bilan boyitib borgan.

Asosiy qism. Zulfiya siymosi-o'zbek she'riyatida bahor, muhabbat va sadoqat kuychisi deb bejiz aytilmagan. Zero, shoiraning hayoti har bir o'zbek ayoliga ibrat bo'ladigan namunadir. Uning ijodida o'zbek ayolining taqdiri katta o'rin egallaydi. Zulfiyaxonim she'rlarida o'zbek ayollari, qizlarining baxt va tashvishlari haqida baralla kuyladi. Shoira she'rlarida ayollik nafosatini tarannum etishdan charchamaydi. Zulfiya she'riyatida tabiatga hamda insoniyatga bo'lgan sevgi va mehr-muhabbatni uchratamiz. U tabiatni turli xil ranglar va timsollar bilan tasvirlaydi. Xalq orasida shoiraning "Bahor keldi seni so'roqlab", "O'glim, sira bo'lmaydi urush", "Sensiz", "Yurak", "Mushoira" kabi she'rlari mashhur.

Bilamizki, Zulfiya sadoqat va muhabbat timsoli. Turmush o'rtog'ining vafotidan so'ng shoira ijodida sog'inch, hijron mavzulari yetakchilik qiladi. Lekin shoira hayotning bu achchiq sinoviga taslim bo'lmadi, o'zida jasorat topib yana ijod qildi va chinakam sadoqat timsoliga aylandi. Zulfiyaxonim ijod qilish bilan bir qatorda farzandlarini tarbiya qildi va Hamid Olimjonning ishlarini ham davom ettirdi. Bir umr sadoqat bilan yashagan shoira "O'rik

gullaganda", "Ko'rganmiding ko'zlarimda yosh?" "Izlayman" kabi she'rlarida Hamid Olimjonga bo'lgan cheksiz sadoqatini, vafosini va sevgisini ifoda etgan.

Izlayman!

Bilaman, topmayman uni.

Zotan, o'zim uni qachon yo'qotdim?

Farzand, Nabiralar tug'ilgan kuni,

Men uni har safar Abadga topdim...

Endi Zulfiyaning "Sen qaydasan, yuragim" nomli she'riga to'xtalib o'tsak.

Qayga ketding, yuragim,

Bitdi bardosh va toqat.

Suhbatingdir tilagim,

Tilda hasratim qat-qat

Bu she'r Hamid Olimjon vafotidan keyin yozilgan bo'lib, unda hijron azobida qiynalayotgan ayolning tuyg'ulari aks ettirilgan. She'rning mazmuni gamdan iborat bo'lganligi uchun ohangi ham gamgin.

Zulfiyaxonimning she'rlarini o'qigan har bir inson uning turmush o'rto'giga bo'lgan muhabbati qanchalik yuqori ekanligini va uning o'limidan qanchalar iztirob chekkanini his qiladi. Biroq turmush o'rto'gi bilan birga kechirgan qisqa umriga qaramasdan, uzoq yillar davomida oilasiga va umr yo'ldoshiga sadoqatini yo'qotmagan.

Xulosa. Zulfiyaxonim o'zbek she'riyatida o'ziga xos o'ringa ega shoira. U insonga xos xislatlarning barchasiga ega ayol desak adashmagan bo'lamiz. Istiqlool davrida ham Zulfiyaxonim ijodi, uning she'rlari, asarlari yanada ulug'landi. 2004-yilda mamlakatimizda Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti ta'sis etildi. Ushbu mukofot adabiyot, san'at va boshqa sohalarda muvaffaqiyatga erishgan qizlarga taqdim etiladi.

Zulfiyaxonimning hayoti va ijodi bugungi kunda barcha xotin-qizlar uchun ibrat bo'la oladi. Chunki uning mehnatsevarligi, sadoqatli yor ekanligi, doimo olga intilishi, izlanuvchanligi barcha ayollar qalbida havas uyg'otadi. Hozirda ham uning she'rlari butun jahon minbarlarida yangramoqda. Uning ibratli hayoti, betakror iste'dodi yoshlar uchun o'rnak bo'la oladi.

References:

1. Zulfiya. Adabiy o'ylar. Toshkent: "Fan", 1985.
2. Zulfiya. Tong bilan shom aro. Saylanma. Toshkent: Sharq, 2006.
3. Karomov N. Zulfiya. Ma'rifiy biografik asar. G'afur G'ulom nomidagi matbaa ijodiy uyi, 2015.
4. Hojiyeva O. To'rt tanho. Toshkent, O'zbekiston, 2013.